


IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 378 ta yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni 38 876 taga yetdi.

2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 38 876 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 81,3 % ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 490 tasi (82,8 %) – Zangiota, 3 443 tasi – (79,5 %) Qibray, 2 782 tasi – (78,9 %) Toshkent tumanlari hamda 2 466 tasi – (90,5 %) Chirchiq, 2 061 tasi – (78,2 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 5 378 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 286 taga yoki 105,6 %ga ko'paygan..


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni (yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
yillar kesimida o'rish dinamikasi**
(yanvar-sentabr oylarida, %da)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
2023-yil yanvar-sentabr oylarida (jamiga nisbatan %da)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 41,6 %i), sanoatda (16,9 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (8,8 %) sohalarida tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 48,8 %i (2022- yil yanvar-sentabrda 46,4 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 16 138,1 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,6%) tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 25 363,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘shish sur‘ati 101,1 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 90,2%) tashkil qildi;

- 11 064,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 39,4 %) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,1%ni tashkil qildi;

- 7 960,5 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 80,0 %i) bajarildi va 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,5 %ga oshdi;


- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘zgaragan, (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 58,3 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 0,1 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,8 %) ko‘paydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,0 %ini yoki 15980,0 mlrd. so‘mini (o‘shish 112,1 %) kichik biznes korxonalarini shakllantirdi;

- xizmatlar umumiy hajmining 69,2 %i yoki 15 587,8 mlrd. so‘mi (o‘shish 108,1 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;

- 420,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 30,5 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 14747,8 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 51,9 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da

	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Savdo	Xizmat	Eksport	Import
Jami viloyat	21,6	90,2	39,4	80,0	85,0	69,2	30,5	51,9
<i>shaharlar:</i>								
Nurafshon	21,1	100,0	15,2	93,4	74,9	46,2	75,4	82,1
Olmaliq	2,0	99,9	2,2	18,2	85,8	69,6	2,4	9,1
Angren	28,5	97,1	75,6	97,1	78,9	63,5	55,2	47,9
Bekobod	2,3	100,0	9,2	51,8	86,7	76,0	3,1	2,1
Ohangaron	19,2	99,3	45,2	99,6	83,2	75,5	29,0	33,6
Chirchiq	36,2	100,0	23,6	92,4	75,0	67,2	22,2	78,0
Yangiyo'l	60,3	99,7	47,5	90,3	93,1	90,1	97,7	94,0
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo'rg'on	28,3	92,3	92,6	100,0	98,0	79,8	18,6	72,3
Ohangaron	8,0	94,9	96,5	99,5	87,3	74,6	23,6	28,2
Bekobod	49,5	75,7	39,2	100,0	92,4	75,1	96,6	93,5
Bo'stonliq	17,3	96,9	50,7	87,3	72,0	58,5	34,1	27,7
Bo'ka	46,4	96,4	49,8	100,0	94,7	83,4	92,5	74,9
Quyichirchiq	80,9	63,1	94,9	99,9	95,9	55,1	97,9	100,0
Zangiota	92,8	94,9	66,1	99,9	83,5	62,1	88,5	98,4
Yuqori Chirchiq	78,2	97,9	85,6	86,6	85,4	75,2	90,5	84,7
Qibray	23,3	91,2	44,5	66,1	73,1	58,8	95,1	78,5
Parkent	87,4	99,9	78,3	100,0	94,9	80,7	80,1	99,5
Piskent	40,1	84,5	57,1	100,0	91,6	71,0	52,5	45,3
O'rta Chirchiq	51,9	84,9	77,7	93,4	96,8	78,0	77,0	87,8
Chinoz	45,6	95,4	66,5	100,0	91,9	57,2	39,8	62,8
Yangiyo'l	42,7	86,2	47,4	98,0	89,5	76,4	36,2	37,3
Toshkent	87,0	98,0	86,4	100,0	84,7	78,3	87,2	88,5